O‘QISH KO‘NIKMALARNI OSHIRISHDA ELEKTRON LUG‘ATLARDAN FOYDALANISH

Matkarimova Malika Oybek qizi

Urganch davlat pedagogika Instituti Filologiya va tarix fakulteti

Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) ta'lim yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada elektron lug‘atlarni o‘quv jarayonida qo‘llash zamonaviy ta’limni axborot oqimiga moslashtiruvchi vosita sifatida ko‘rib chiqiladi. Maqolada elektron lug'atlarning funksionalligi, ularning afzalliklari va kamchiliklari ko'rsatilgan. Elektron lug'atlarning tezlik, ma'lumotni topishda qulaylik, katta hajm, so'zning ovozli va grafik tasviri, imlo tekshiruvi, interaktivlik, matnning ixchamligi va yana turli xil imkoniyatlari mavjud. Elektron lug‘atlar zamonaviy leksik materiallarga asoslangan bo‘lib, til va nutq orqali ma`lumot almashish imkoniyatini beradi, tarjima jarayonini tez va foydali qiladi, shuning uchun allaqachon oliy ta’lim muassasalarining o‘quv jarayonida universal vositaga aylanib bo`lgan. Maqolada talabalar ma’ruza, amaliy mashg‘ulotlar va mustaqil ishlar davomida elektron lug‘atlardan foydalanish ularga o‘qish malakasini oshirishda qay darajada yordam berishi ham ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: Elektron lug‘at, mobil ilovalar, veb-ilova, o‘quv malakasi, lug‘at, xorijiy til.

Kirish. Axborot texnologiyalarining ta’lim jarayoniga joriy etilishi bilan elektron lug‘atlar, mobil ilovalar va veb-ilovalardan foydalanish kundan kunga ommalashib bormoqda. Elektron lug‘atlarning asosiy vazifalaridan biri o‘quvchida ma’lumotlarni tushunish va ularni chet tilini o‘rganishda qo‘llash qobiliyatini rivojlantirishdir.

Hozirgi vaqtda elektron lug‘atlar bilan bog‘liq bir qancha tushunchalar mavjuddir. Ularning aksariyati sinonimni topib, bir-birining o‘rnida to`g`ri ishlatilishga asoslangan [1]. Elektron lug‘atlardagi terminologiyalar yetarlicha soddadir. Odatda uni talqin qilish yoki matnlarda tushunishda hech qanday qiyinchiliklar bo‘lmaydi. Hozirgi vaqtda ko‘p turdagi elektron lug‘atlar mavjud [1]. Ular ham oflayn, ham onlayn ilova shaklida bo‘ladi. Ma’nosi o‘xshash so‘zlar guruhlarga bo‘lingan holda tuzilgan lug‘at turi til o‘rganish jarayonida qo‘llaniladigan lug‘atlarning alohida turlaridan biridir. Ko‘pincha so‘zlar g‘oyalar yoki tamoyillar bilan bog‘liq bo‘lgan tarzda olinishi so`zlarni yuqori sifatli ma‘lumotnoma, foydali, zarur va zamonaviy vosita ekanligining isbotidir.

Chet tilini o‘rganishga nomutaxassis bo`lgan talabalarni o‘qitish jarayonida o‘quv terminologiyasi minimumida taqdim etilgan ma’lum miqdordagi maxsus lug‘atni o‘zlashtirmasdan turib, ularga chet tilini o‘rgatib bo‘lmaydi. Talabalar o‘z sohasiga ta’qul o‘quv materialini o‘z ichiga olgan ma'lumotlarga muhtoj, shuning uchun tarjimonlar, lug'atlar, ensiklopediyalar va ma’lumotnomalardan keng ko‘lamda foydalanishlariga to‘g‘ri keladi [2]. Elektron lug‘atlar va tarjimonlar bilan ishlash tezlik, hajm, vizualizatsiya va texnik imkoniyatlar bo'yicha katta yordam beradi. Sanab o‘tilganlardan tashqari ularda o‘qish ko‘nikmalarini hamda nutq madaniyatini oshirish, individual so‘z boyligini boyitish va o‘rganilayotgan til normalarini joriy etish kabi qo‘shimcha imtiyozlari ham border.

Universitetlardagi o‘quv faoliyatiga elektron lug‘atlar, mobil ilovalar va veb-ilovalarning joriy etilishi til o‘rganishga nomutaxassis bo‘lgan yo‘nalish talabalari uchun o‘quv jarayonida chet el

adabiyotlaridan to`g`ridan-to`g`ri foydalanish orqali bo‘lajak mutaxassislarning yuqori kasbiy tayyorgarligiga va o‘qish ko‘nikmasini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Yuqorida keltirib o‘tilganlar tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi, oliy ta‘lim muassasalarida rus va ingliz tillarini o‘qitishda mualliflarning turli xil lug‘atlardan foydalanish tajribasini tahlil qilish va solishtirish ushbu maqolaning maqsadidir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Maqolda ko‘rib chiqilayotgan mavzuni chuqurroq o‘rganish uchun ushbu muammo bo‘yicha tadqiqot ishlari o‘rganildi. Til o‘rgatish va o‘rganishda elektron lug‘atlardan foydalanishning turli to`siqlari va masalalarini tahlil qildik. Adabiyotlarni o‘rganishda zamonaviy elektron onlayn va oflayn lug‘atlardan foydalanish jihatlari ochib berildi [3].

Elektron lug‘atlarni afzalliklar, kamchiliklar va o‘ziga xoslar sifatlari mavjuddir. Til o‘rganishda elektron lug‘atlardan foydalanish zamonaviy ta’lim jarayonida tobora ortib borayotgan axborot oqimiga moslashtirishning istiqbolli va maqsadli jarayonidir. Zamonaviy dunyoda onlayn va oflayn elektron lug‘atlar bosma nashrlar va katta lug`at kitoblar o'rnini egallamoqda. O‘rganilayotgan tilning leksik xususiyatlarini amaliy hamda nazariy jihatdan o‘zlashtirish uchun zamonaviy lug‘at turlariga murojaat qilish maqsadga muvofiqdir.

Elektron lug‘at foydalanuvchilari qulay, avtomatik va tezkor qidiruv vositalaridan foydalanib ko‘p vaqt tejashlari mumkin. Elektron lug‘atlarning turi juda ko‘p, va ularini farqlash ular bajaradigan funktsiyalarga qarab amalga oshirilinadi. Elektron lug‘atlarning texnik vazifalariga qarab quyidagi toifalarga ajratishimiz mumkin: internet lug‘atlari; onlayn o‘quv dasturlari uchun lug‘at.

Shu bilan birga, elektron lug‘atlarning funksional imkoniyatlari va ularning o‘rganishda keng qo‘llanilish sabablarini hisobga olgan holda shuni ta’kidlash joizki, elektron lug‘atlar ko‘plab qulayliklarni (jumladan, qidiruv va talaffuz funksiyalarini) taqdim etuvchi, talabalarning o‘quv jarayonining ajralmas qismiga aylanib bo‘lgandir.

Elektron lug‘atlar - bu bizning zamonamizning talabi, ular talabalarning o‘rganish imkoniyatlarini yanada kengaytirish vositasi bo‘lib, ular tobora ortib bormoqda va hamma uchun mavjuddir [4].

Dars jarayonida elektron lug‘at bilan ishlash talabalar uchun katta ahamiyatga ega bo‘lib, talabaning lingvistikasini, dunyoqarashini va nutq madaniyatini rivojlantirishga xissa qo‘shadi. Elektron lug‘atlardan foydalanib lingvistik va nutqiy xarakterdagi ko‘plab muammolarni hal qilishi mumkin. O‘qituvchilar talabalarga lug‘at bilan ishlash, va lug‘at yozuvlarini tahlil qilish va ishonchli axborotni qanday topish bo‘yicha yo‘l-yo‘riq ko‘rsatishi kerak. Kerakli ma’lumotlarni qamrab olgan, ehtiyotkorlik bilan rejalashtirilgan va yaxshi tashkil etilgan lug‘atlar o‘quvchilarning so‘z boyligini kengaytirishga yordam beradi hamda orfografik savodxonlikni va nutqini rivojlantiradi [5].

Lug‘at bilan ishlashda bir necha turdagi vazifalar mavjud, masalan, lug‘at yozuvlarini qidirish, yozuvini tahlil qilish, axborotni to‘g‘ri qo‘llanilish va nutq muammolarini hal qilishni misol qilib aytishimiz mumkin. Lug‘at ma’lumotlarni to‘g‘ri tushunish, so‘zlarning yozilish va yangi lug‘atlar eslab qolish ko'nikmalarini rivojlantiradi [6]. Mustaqil va dars jarayonida lug‘atlardan foydalanish o‘rganuvchining yangi lug‘atlarni gapda qo‘llashida hamda frazeologiya, maxsus atamalar, hosilalar va sinonimik qatorlardan foydalanishida katta ahamiyatga egadir.

Dars jarayonida texnologiyalardan, ya'ni elektron ma'lumotnomalar va lug'atlardan foydalanish o'quvchilarga chet tilidagi ilmiy tadqidotlardan to'g'ridan-to'g'ri foydalash, talabalarni xorijga jalb qilish, chet tilidagi kasbiy faoliyat, til va nutq qobiliyatlarini rivojlantirish imkonini beradi. Elektron lug'atlar vizualizatsiya sifatida ham foydalanish imkonini beradi. Ularning multimedia xususiyatlari tufayli o'quvchilarning ko'rish va eshitish xotirasida ma'lumotni yaxshi eslab qolish imkoniyatini taqdim etadi.

Ko'pchilik o'quv dargohlar cheklangan qog'oz lug'atlarga egadirlar. Elektron lug'atlar, mobil ilovalar va onlayn ilovalarda so'z ta'riflari va shu so'zlar qatnashgan misollar keltiring. Bu talabalarga katta yordam beradi, ular so'z ta'riflariga tayangan so'zlarni chuqurroq yodlashi mumkin.

Elektron lug'atlarning muhim afzalligi audiovizual ta'lim vositalaridan ya'ni. rasmlar, videolar, audio kliplar foydalanishdir. Elektron lug'atlarning yana bir muhim vazifasi bu – ularda so'zlarni o'qib berish imkoniyati mavjudligidir. O'rganuvchilar bu orqali o'zlarining ham eshitish ko'nikmasini yaxshilashi, ham so'zni to'g'ri talaffuz qilishni o'rganishi mumkin. Elektron lug'at so'zni toppish, uni buyruqda yozish, uni lug'at qatori yoki alifbo tartibida toppish imkoniyatini beradi.

Xulosa va takliflar. Texnik afzalliklar va o'ziga xosliklar qatoriga ma'lumotlarni qidirishning tezligi va qulayligi, katta hajmliligini, axborotni yangilash, audio va vizual variant, gipermatn va internet resurslari, va boshqalarni kiritishimiz mumkin . O'qitish usullari va tartiblarini tashkil qilishning afzalliklari esa, ularning dizayni, moslashuvchanlik, teskorlilik va ko'p funktsionallikdir. Asboblar individual va guruh ishlarida, ma'ruzalarda, amaliy mashg'ulotlarda va mustaqil ishlar davomida, uy vazifalarida va darsdan tashqari mashg'ulotlarda muvaffaqiyatli qo'llaniladi. Ushbu zamonaviy lug'at turlarining o'quv jarayoni uchun afzalliklari o'qish, yozish, tinglash va gapirishda sof lingvistik ko'nikmalar, shuningdek, qo'shimcha til va nutq madaniyati va malakasidan iboratdir.
Elektron lug'atlarni universitetning o'quv faoliyatida qo'llashning afzalliklari bo'lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini oshirishga xizmat qilmoqda.. Elektron lug'atlar yuqori sifatli ma'lumotnoma manbasi, xorijiy tillarni o'rgatish va o'rganishda foydali va zamonaviy vositadir. Elektron lug'atlar katta hajmga va to'liq matnli qidirish imkoniyatiga ega. Shubhasiz, bunday lug'atlar va ilovalardan to'g'ri va maqsadli foydalanilsagina ularni qo'llash foydali bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ermetova, J., Teaching Synonymies in Language Classroom Through Literature. (Jane Eyre). *Journal of new century innovations*, *30*(4), 2023, 45-48.
2. Ermetova, J. and Qizi, M.M.O., The Importance of Cartoons for Increasing Pupils'vocabulary (Paddington). Science and innovation, 2023, *2*(B4), 582-585.
3. Stankevich N.P. Using electronic online dictionaries in the process of teaching a foreign language. Materials of the International scientific-practical conference «Information technologies in political, socio-economic, legal and technical systems». Minsk: BNTU, 2020. 305–309.
4. Kazakova O.P. Learning to work with a dictionary as the first stage of teaching independent educational activity. Organization of independent work of students: Materials of reports of the II All-Russian scientific and practical Internet conference «Organization of independent work of students» (December 6–9, 2013). Saratov: New Project Publ., 2013. 101–103.
5. Belyaeva L.N. The potential of automated lexicography and applied linguistics. Izvestia: Humanitarian and scientific journal of Herzen University. 2010. 70–79

6. Kantysheva N.G. Hypermedial structural elements of the representation of special knowledge in computer lexicography. Bulletin of the Chelyabinsk State University. Ser. Philology. Art Criticism. 2012. Vol. 71. No. 32 (286). Pp. 47–50.